

ZAMONAVIY ANSAMBL SAN'ATIDA IJRO TALQINI VA SAHNAVIY MADANIYATNING O'ZARO MUTANOSIBLIGI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.047>

V.Boboyev
Qo'qon davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ansambl san'atida ijro talqini va sahnaviy madaniyat tushunchalarining mazmun-mohiyati, ularning o'zaro bog'liqligi hamda badiiy yaxlitlikni ta'minlashdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Ansambl ijrochiligida musiqiy interpretatsiya, jamoaviy uyg'unlik, sahnaviy etika, tomoshabin bilan kommunikativ aloqa masalalari ilmiy-nazariy asosda yoritiladi. Shuningdek, milliy va jahon tajribasi misolida ijro va sahna madaniyatining mutanosibligi badiiy ta'sir samaradorligini belgilovchi asosiy omil ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: ansambl, ijro talqini, sahnaviy madaniyat, interpretatsiya, badiiy obraz, musiqiy tafakkur, ijrochilik mahorati, estetika

THE INTERPRETATION OF PERFORMANCE INTERPRETATION AND STAGE CULTURE IN MODERN ENSEMBLE ART

V.Boboyev
Kokand State University

Abstract: This article analyzes the essence and content of interpretation and stage culture in contemporary ensemble art, their interrelationship, and their significance in ensuring artistic integrity. The issues of musical interpretation, collective cohesion, stage ethics, and communicative interaction with the audience in ensemble performance are examined on a scientific and theoretical basis. Furthermore, drawing on national and international experience, the study substantiates that the balance between performance interpretation and stage culture serves as a key factor in determining the effectiveness of artistic impact.

Keywords: ensemble, performance interpretation, stage culture, interpretation, artistic image, musical thinking, performance mastery, aesthetics

Musiqa san'ati jamiyat ma'naviy hayotining ajralmas qismi bo'lib, uning rivojlanish jarayonida ansambl ijrochiligi alohida o'rin egallaydi. Ansambl - bu bir nechta ijrochilarning yagona badiiy g'oya asosida uyg'un ijro faoliyatidir. Unda har bir

ijrochi individual mahoratga ega bo'lishi bilan birga, umumiy musiqiy makon ichida hamohanglikni ta'minlay olishi zarur.

Musiqqa san'ati jamiyat ma'naviy hayotining ajralmas qismi bo'lib, uning rivojlanish jarayonida ansambl ijrochiligi alohida o'rin egallaydi. Ansambl - bu bir nechta ijrochilarning yagona badiiy g'oya asosida uyg'un ijro faoliyatidir. Unda har bir ijrochi individual mahoratga ega bo'lishi bilan birga, umumiy musiqiy makon ichida hamohanglikni ta'minlay olishi zarur¹.

Zamonaviy san'at sharoitida ansambl ijrochiligi nafaqat texnik mukammallik, balki sahnaviy ifoda, obrazlilik va estetik uyg'unlikni ham talab etadi. Shu bois ijro talqini va sahnaviy madaniyat tushunchalari o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi kategoriyalar sifatida qaraladi. Globallashuv jarayonida sahna madaniyati va ijro interpretatsiyasi yangi shakl va mazmun kasb etmoqda. Milliy an'analar bilan zamonaviy yondashuv uyg'unlashgan holda ansambl san'atining yangi modeli shakllanmoqda. Zamonaviy ansambl san'atida ijro talqini va sahnaviy madaniyatning o'zaro mutanosibligini ilmiy asosda tahlil qilish hamda ularning badiiy yaxlitlikni ta'minlashdagi rolini aniqlashda ijro talqini tushunchasining nazariy asoslarini o'rganish, sahnaviy madaniyatning tarkibiy qismlarini aniqlash, ularning ansambl ijrochiligidagi o'zaro aloqadorligini tahlil qilish, zamonaviy jahon tajribasi asosida amaliy xulosalar chiqarish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi².

Ijro talqini (interpretatsiya) - bu musiqiy asarning mazmunini ijrochi tomonidan anglash va uni individual badiiy tafakkur asosida ifodalash jarayonidir. Har bir asar notalarda aks etgan bo'lsa-da, uning "jonlanishi" ijro jarayonida amalga oshadi. Shu bois ijro talqini - bu nafaqat texnik mahorat, balki ijrochining estetik qarashi va badiiy idrokini namoyon etishidir. Masalan, Lyudwig van Betxoven asarlari turli ansambllar tomonidan turlicha talqin qilinadi. Bir ansambl tempni sekinroq, dramatik elementlarga urg'u berishi mumkin, boshqasi esa tezroq va ritmik qirralarini ko'rsatishi mumkin. Bu interpretatsiyaning subyektiv jihatini ko'rsatadi. Shu bilan birga, temp, dinamika, frazirovka, agogika kabi ijro elementlari asarning musiqiy obrazini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi³.

Ansambl ijrosida interpretatsiya yakka ijrodan farq qiladi. Chunki bunda individual qarashlar jamoaviy uyg'unlikka bo'ysunadi. Har bir ijrochi umumiy konsepsiyaga moslashadi, shu orqali badiiy yaxlitlik ta'minlanadi. Ijro talqini quyidagi omillarga bog'liq:

1. Ijrochining musiqiy saviyasi - texnik mahorat, musiqiy intonatsiya va ijro aniqligi.

¹ Назайкинский, Е. В. О психологии музыкального восприятия. – Москва: Музыка, 1972.

² Cook, N. Music: A Very Short Introduction. – Oxford: Oxford University Press, 1998.

³ Абдуллаев, Р. С. Ижрочилик маҳорати. – Тошкент: Фан, 2008.

2. Stilistik bilim va tarixiy tafakkur - asar yaratilgan davr va stilistik xususiyatlarni anglash, tarixiy ifodani tushunish.

3. Asar g'oyasini chuqur anglash - kompozitor niyati, ruhiy kayfiyat va dramatik struktura.

4. Jamoaviy musiqiy eshituv - ansambl ichida hamohanglikni ta'minlash, boshqa ijrochilar bilan ritm va tonal uyg'unlikni moslashtirish.

Bundan ko'rinadiki, ijro talqini - bu faqat texnik bajarish emas, balki musiqiy asarni hayotga olib chiqish san'ati bo'lib, uning subyektiv va jamoaviy jihatlarini uyg'unlashtirish orqali estetik qadrini oshiradi⁴.

Sahnaviy madaniyat - ijrochining sahnadagi tashqi va ichki holatini, estetik ko'rinishini hamda tomoshabin bilan muloqot uslubini o'z ichiga oladi. Sahnaviy madaniyat tashqi ko'rinish va libos uyg'unligi, sahnada joylashuv (mizansena), tana plastikasining tabiiyligi, mimika va nigoh madaniyati, tomoshabin bilan vizual aloqa kabi elementlarni o'z ichiga oladi.

Ansamblida sahnaviy madaniyat individual emas, balki kollektiv xarakterga ega. Barcha a'zolar yagona estetik ko'rinishda namoyon bo'lishi kerak.

O'zbekiston Davlat Folklor Ansambli - bu Toshkent shahrida faoliyat yurituvchi davlat san'at jamoasi bo'lib, o'zbek xalqining boy musiqiy va raqs an'alarini saqlash hamda targ'ib etishga xizmat qiladi. Ansamblning ijodi milliy cholg'ular, an'anaviy qo'shiqlar va xalq raqslarini zamonaviy sahna shakllari bilan uyg'unlashtiradi. Ansambl xalq ijodiy merosini jonli uslubda namoyish etish maqsadida tashkil etilgan. Uning repertuarida turli viloyatlarga xos kuy va raqslar, maqom yo'llari hamda bayramona sahna kompozitsiyalari mavjud. Har bir chiqish o'zbek xalqining milliy ruhi, rang-barang liboslari va sahna bezaklari orqali boy madaniy an'analarni aks ettiradi.

Jamoa O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tizimida faoliyat yuritib, mamlakatning nufuzli madaniy tadbirlarida muntazam ishtirok etadi. Ansambl respublika va xalqaro miqyosda O'zbekiston madaniyatini targ'ib etuvchi muhim ijodiy elchi sifatida tanilgan. Ansambl tarkibiga professional xonandalar, raqqosalar va sozandalar bo'lib, ularning chiqishlari an'anaviy cholg'ular - dutor, rubob, doira, surnay kabi asboblardan iborat bilan ijro etiladi. Sahnadagi har bir asar o'zbek xalqining tarixiy xotirasi va zamonaviy badiiy qarashlarini uyg'unlashtiradi. Ansambl milliy san'at maktabining ajralmas qismi bo'lib, yosh avlodni xalq madaniyatiga hurmat ruhida tarbiyalashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, u O'zbekistonning xalqaro nufuzini mustahkamlovchi madaniy diplomatiya vositasi sifatida e'tirof etiladi.

Ijro talqini va sahnaviy madaniyatning o'zaro mutanosibliigi haqida so'z yuritilgan ekan, bu san'atda ijro va sahnaviy madaniyat bir-birini to'ldirishini ta'kidlash lozim.

⁴ Nettl, B. The Study of Ethnomusicology. – Urbana: University of Illinois Press, 2005.

Agar musiqiy talqin mukammal bo‘lib, sahnaviy ifoda sust bo‘lsa, tomoshabinda to‘liq ta’sir shakllanmaydi. Aksincha, sahna ko‘rinishi kuchli, ammo musiqiy mazmun sayoz bo‘lsa, ijro yuzaki bo‘lib qoladi.

Masalan, Kronos Quartet (Amerikaning mashhur zamonaviy simfonik kvarteti bo‘lib, 1973-yilda San-Fransisko shahrida tashkil topgan.) faoliyatida zamonaviy musiqiy eksperiment va sahnaviy estetika uyg‘unlashgan. U asosan klassik musiqa an‘analarini saqlab qolgan holda, zamonaviy, eksperimental va turli janrlardagi asarlarni ijro etadi. Ular repertuar tanlashdan tortib sahnadagi harakatgacha badiiy konsepsiyani saqlaydi.

O‘zbekiston milliy maqom ansambli 1959 yilda tashkil etilgan bo‘lib, Shashmaqom, maqom yo‘llari hamda xalq kuylarini ijro etishda muhim rol o‘ynaganligi bilan e’tirof etilsa, Surxondaryo, Buxoro, Samarqand kabi viloyat maktab ansamblari yoshlar orasida musiqiy savodxonlik va sahnaviy madaniyatni shakllantirishda faol bo‘lib, an’anaviy va zamonaviy repertuarni ijro etadi.

Shuningdek, Silkroad Ensemble (xalqaro musiqiy jamoa bo‘lib, 2000-yilda mashhur cellist (violonchelista) Yo-Yo Ma tomonidan tashkil etilgan) turli madaniyatlar musiqasini birlashtirish orqali sahnaviy kommunikatsiyaning yangi modelini yaratgan. Bu yerda interpretatsiya va sahnaviy madaniyat o‘zaro integratsiyalashgan. Bunda badiiy yaxlitlik, estetik uyg‘unlik, tomoshabin bilan emosional aloqa, professional ijrochilik darajasining oshishi kabi mutanosibliklar ta’minlanadi.

Bugungi kunda multimedia texnologiyalari, yorug‘lik dizayni va sahna rejissurasi ansambl ijrochiligiga faol kirib kelmoqda⁵. Masalan, sahnada animatsiya, video-proyeksiya va maxsus yorug‘lik effektlari orqali musiqiy interpretatsiya yanada jonli va dramatik qiyofa oladi. Vizual komponent ijrochilik jarayonida musiqaning hissiy va badiiy mazmunini kuchaytiruvchi omil sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Global madaniy almashinuv ansambl san’atida yangi shakllarni yuzaga keltirdi. Turli mamlakatlardan kelgan musiqachilar bir ansamblida ijro etish orqali madaniyatlararo dialogni rivojlantiradi. Shu bilan birga, milliy cholg‘ular va klassik ansambl tarkibining sintezi yangi estetik modelni yaratmoqda. Masalan, Silkroad Ensembleda Markaziy Osiyo dutor va chang bilan Yevropa klassik cholg‘ulari birlashtirilib, yangi musiqiy va sahnaviy tajriba hosil qilinadi⁶. Zamonaviy ansambl ijrochiligi quyidagi xususiyatlarga ega:

- Ko‘p janrlilik: jazz, klassik, folk, minimalizm va eksperimental janrlar bir repertuarda birlashtiriladi.
- Sahnaviy dinamizm: ijrochilar harakat va sahna ergonomikasini musiqiy ifoda bilan uyg‘unlashtiradilar.

⁵ Cook, N., & Everist, M. Rethinking Music. – Oxford: Oxford University Press, 1999

⁶ Ma, Y.-Y. Sing Me Home: Silkroad Ensemble Recording Notes. – New York: Sony Classical, 2016.

- Auditoriya bilan interaktiv aloqa: zamonaviy ansambllar tomoshabinlarning reaksiyasi va sahnadagi o‘zaro muloqotga e’tibor beradilar.

- Madaniyatlararo dialog: turli milliy va xalqaro musiqiy elementlar bir-birini to‘ldirib, yangi estetik tajriba yaratadi.

Multimedia va sahna texnologiyalari rivojlanib borishi o‘z navbatida ansambl san’atini faqat musiqiy emas, balki vizual va interaktiv badiiy platformaga aylantirmoqda⁷.

Zamonaviy ansambl san’atida ijro talqini va sahnaviy madaniyat o‘zaro chambarchas bog‘liq kategoriyalardir. Ularning mutanosibligi badiiy ta’sirning asosiy sharti hisoblanadi. Ijro interpretatsiyasi musiqiy mazmunni ochib bersa, sahnaviy madaniyat uning estetik ifodasini ta’minlaydi. Ansambl sharoitida bu ikki omil uyg‘unlashgan holda yuksak san’at namunasi yuzaga keladi. Shunday qilib, zamonaviy ansambl ijrochiligida texnik mahorat bilan bir qatorda sahnaviy madaniyatni rivojlantirish muhim pedagogik va estetik vazifa hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ansambl ijrochiligi: tarix, nazariya, amaliyot. Ilmiy-amaliy seminar materiallari. T.: SAN’ATSHUNOSLIK INSTITUTI, 2021. (AnyFlip)
2. Yunus Rajabiy. Shashmaqom. Toshkent: 1970-1973 (1-5 jild).
3. Bishop L., Cancino-Chacón C., Goebel W. Moving to Communicate, Moving to Interact: Patterns of Body Motion in Musical Duo Performance. arXiv:1911.09018, 2019. (arXiv)
4. Sawicki J. Adaptation and synchronization - basic mechanisms in music performance. arXiv:2504.03958, 2025.
5. Maqom ansambllari faoliyati tarixi (maqola). milliycha.uz. (Milliylik-millat ko‘zgusi)
6. O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat (ansambl ijro repertuariga oid tarixiy manbalar). dsmi.uz. (O‘zDSMI)
7. Surxondaryo viloyati maktab ansambllari faolligi haqida musiqashunoslik maqolasi. (Фан ва Санат)
8. Назайкинский, Е. В. О психологии музыкального восприятия. - Москва: Музыка, 1972.
9. Cook, N. Music: A Very Short Introduction. - Oxford: Oxford University Press, 1998.
10. Taruskin, R. The Oxford History of Western Music. - Oxford: Oxford University Press, 2005.
11. Cook, N. Music: A Very Short Introduction. - Oxford: Oxford University Press, 1998.

⁷ Cook, N. Music as Performance. – Oxford: Oxford University Press, 2001

12. Крамер, J. Musical Meaning: Toward a Critical History. - Berkeley: University of California Press, 2002.